

BAHORNING 5 KUNI DOIRASIDAGI yana bir tadbir...

Institutimizning "Gidromelioratsiya" fakulteti yoshlar ittifoqi kengashi tomonidan o'tkazilib kelinayotgan "Bahorning 5 kuni" festivalining so'nggi beshinchi kunida guruhlar o'rtasidagi milliy taomlar bellashuvi tanlovi o'tkazildi. Ushbu tanlov qatnashchilari tomonidan juda chiroyli va ko'tarinki kayfiyatda o'tkazildi. Tanlov bir nechta guruhlar ishtirokida tashkil etildi. Har bir guruh dasturxon yozishdi va o'ziga hos uslubda bezatib, ularga haqiqiy bahorni go'zal va tansiq milliy taomlari o'zgacha ko'rinish berib turdi.

Ushbu tanlovni o'tkazish bilan birga, barchaga bahoriy kayfiyat ulashdik desak, mubolag'a bo'lmaydi. Buni barchaning yuzidagi bahoriy sog'inch hissini aks etib turgan samimiy tabassumdan ham bilish qiyin emas edi. Qizlar bu tanlovda haqiqiy mahorat egasi ekanliklarini namoyish eta olishdi. Tadbir so'ngida eng yaxshi bezatilgan, bahoriy dasturxonlar hakamlar tomonidan baholanib, munosib o'rinlar berildi.



Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov